



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

### AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Xamidova M P

Nizomiy nomidagi O'zMPU Oligofrenopedagogika kafedrası p.f.n.dots.,  
Xasanova Rixsiya Dilmurod qizi  
Oligofrenopedagogika yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Nutq bola hayotida ijtimoiy tajriba, muloqot faoliyatini boshqarish kabi turli vazifalarni bajaradi. Barcha bu vazifalar maktabgacha yosh davrida shakllanadi. Bularning barchasi o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Muloqotning o'sib kelayotgan ehtiyojlari, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning barcha shakl va vazifalari rivojlanishiga maktabgacha bo'lgan yoshning har bir (kichik, o'rta, katta) bosqichida nutq bola faoliyatida turlicha darajada ishtirok, bolaga ijtimoiy tajribani kuzatish uchun turli vazifaga ega bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, aqli zaif bolalar, nutqiy malakalar, maktabgacha yoshdagi bolalar, muloqot;

**Аннотация:** Речь выполняет различные задачи в жизни ребенка, такие как социальный опыт, управление коммуникативной деятельностью. Все эти задачи формируются в дошкольном возрасте. Все это взаимосвязано. Возрастающие потребности в общении, развитие всех форм и задач речи у детей дошкольного возраста приводят к тому, что на каждом (малом, среднем, старшем) этапе дошкольного возраста речь в разной степени участвует в деятельности ребенка, ставит перед ребенком разную задачу наблюдения за социальным опытом.

**Ключевые слова:** Речь, умственно отсталые дети, речевые навыки, дошкольники, общение;

**Annotation:** Speech performs various tasks in the life of a child, such as social experience, management of communication activities. All these tasks are formed during the preschool age. These are all interrelated. The growing needs of communication, the development of all forms and functions of speech in preschool children at each (small, medium, large) stage of preschool age, speech will have a different level of participation in the child's activities, a different task for the child to observe social experience.

**Keywords:** Speech, mentally retarded children, speech skills, preschool children, communication;

Nutq butun maktabgacha bo'lgan davr davomida jadal rivojlanadi. So'z boyligi ortishi boshlanadi. Normal rivojlanayotgan bola lug'atida so'zlar soni uzluksiz ortib boradi va maktabgacha bo'lgan yoshda ularning o'sib borishi juda yuqori bo'lib qoladi. Lug'at sifati jihatidan ham o'zgarib boradi: unga barcha so'z turkumlari kiritiladi, har yilda so'z ma'nosi o'zgarib boradi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolada so'z ko'p holda, yetarli umumlashmagan, vaziyatga binoan bo'lmagan yoki aksincha, muhimlashtirilgan, bir qator holatlarda esa noaniq tushunilgan bo'lib chiqadi. Masalan, oddiygina «piyola» so'zi biz uchun ichishga mo'ljallangan idishni bildiradi: shakli, rangi, kattaligi material hec qanday ahamiyatga ega emas. Kichik bola uchun esa piyola muayyan vaziyatda uchratadigan (so'zning vaziyatga ko'ra ma'nosi), muayyan shakl, kattalikdagi, rangdagi unga ma'lum bo'lgan idish. Boshqa bir misol: bola she'r o'qiyapti: tanchada mushuk o'tiribdi va ko'zini qisaypti. «Ko'zini qismoq» so'zi notanish bo'lgan bola qandaydir «ko'zini qisuvchi» noma'lum hayvonni, mushukni



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

yonida tasavvur qiladi. Bunda u kattalarning izohini qabul qilmaydi va beto'xtov «menga ko'zini qisuvchini ko'rsat» deb so'raydi. Bolalar nutqida qo'shimcha tanish so'zlar o'rniga notanish so'zlarning qo'llanilishi tez-tez uchrab turadi. Bunday nutq hali bolaga yangi bilimlarni berish uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qila olmaydi. A.B.Zaporojetsning fikricha, maktabgacha bo'lgan yoshda bilimlarni o'zlashtirish imkoniyati aniq ko'rgazmali tasavvurlarga tayangan holdagina tushuntirishlar asosida yuzaga keladi, faqatgina maktabgacha bo'lgan katta yoshga kelib so'z o'z-o'zidan muayyan mazmun chegarasida, bilimlar, ijtimoiy tajribani berish manbasi bo'lib xizmat qila boshlaydi. Aqli zaif bolalar nutqini rojlanish xususiyatlari A.N.Gvozdev, N.I.Jinkin, N.A.Menchinskaya, R.YE.Levina, Gnezdilov M.S., Petrova V.N., Aksyonova A.K., Barskaya N.M., Voronkova V.V., Smirnova Z.N., Raxmanova V.S., Nurkeldiyeva D.A., Xamidova M.P. kabi va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Aqli zaif bolalarning bilish faoliyatining umumiy buzilishi ko'pincha ularning eshitish va nutqini harakatga keltiruvchi analizatorlari (sezgi organlari) ning yaxshi o'sib yetilmaganligiga olib keladi. Natijada murakkab nutqni o'rganib olishda ularda katta qiyinchiliklar kuzatiladi. A.N.Gvozdev, N.I.Jinkin, N.A.Menchinskaya, R.YE.Levina va boshkalar bajargan tadkikotlarda maktab yoshiga yetmagan meyorda rivojlangan, aqliy jihatdan yetuk bolalarda fonematik eshitishi va analiz-sintez qilish qobiliyatlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Nutqni uzlashtirish jarayonida meyor doirasida, aqliy jihatdan yetuk bola fakat suzlarni emas, balki ayrim morfemalar-so'zning ma'noli qismi-o'zak, kelishik qo'shimchalari, so'z yasovchi qo'shimchalarni esda saqlab qoladi va xatto ikki yoshdan boshlab so'z yasash qoidalarini amaliy ravishda qo'llay boshlaydi. Turli-tuman tadkikotchilar keltirgan ko'p misollar bolalarning suz ijod etishini amaliy jihatdan umumlashtirish morfologik kobiliyatining paydo bulishi xakidagi xodisadan kafolat beradi.

Aqli zaif bolalarning nutqini rivojlanish jarayoni boshqacha kechadi. Maktab yoshiga yetmagan aqli zaif bolalarda bu xildagi umumlashtirishlar paydo bo'lmaydi. Aqli zaif bolalar kunda ishlatiladigan, ko'p takrorlanadigan narsalarning nomi, harakati va belgisini, gaplarning oddiy tuzilishlariga o'xshagan ayrim so'zlarni o'zlashtiradilar. Eshitish va nutqni harakatga keltiruvchi analizatorlarning ichida miya qobigida analiz va sintezning buzilishi tufayli ular nutqiy talaffuzni kiyinchilik bilan urganadilar. Nutqning kelgusida rivojlanishi sekin-astalik bilan boradi va uziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi, shuning uchun bunday bolalar maktabda ta'lim olishga tayyor emasligi ma'lum buladi. Talaffuzdagi nuqsonlar, grammatik qurilishdagi o'z fikrlarini bir-biriga bog'liq ravishda ravon ifodalash (aytib berish) ni bilmaslik aqli zaif bolaga xat-savod urgatishni qiyinlashtiradi. So'zlashishni buzilishi insonlar bilan juda muhim qimmatga ega bo'lgan aloqa, muloqat-munosabatga tuskinlik kiladi, jamiyatdan ajralib yakkalanib qolish, o'ziga ishonchsizlik singari hislatlarni yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun nutqni buzilishini bartaraf qilish-aqli zaif bolalarni hamma fanlar bo'yicha o'qish-yozishni muvaffaqiyatli o'rganishning garovidir. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab o'quvchilari orasida nutqni fonetik jihatini buzadigan o'quvchilar anchagina foizni tashkil etadi. G.A.Kashe, M.A.Safchinko, R.A.Orlova va boshkalarining ma'lumotiga kura 1-sinf o'quvchilarining 65% da tovushni talaffuz kilishni buzishning turli shakllari, 2-sinfda bunday bolalarning mikdori 60 % gacha, 3-sinfda esa 30 foizgacha kamayadi. Keltirilgan raqamlar nuqsonlarning barqarorligidan, so'zning tovush tarkibini o'rganib bilib olishdagi katta qiyinchiliklardan guvohlik beradi. Tovushlarni noto'g'ri talaffuz kilinishi turlicha kurinishda bulishi mumkin: nutkda u yoki bu tovushning yo'qligi, ularning notugriligi, bir yoki turli guruhlarining (sirgaluvchi undoshlar, sonor r va l



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

tovushlari) almashtirish doirasida jarangli va jarangsizlar, yumshoq va qattiq undoshlarni aralashtirish, soʻz tarkibini buzish.

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab oʻquvchilari nutqining fonetik jihatlarini oʻsib yetilmaganligi va sifat jihatdan oʻzgarishiga qarab bir necha guruhga boʻlish mumkin.

1-guruh noaniq talaffuz qiladigan ayrim tovushlarni (fonetik dislaliya deb ataladigan) talaffuz qiluvchi bolalar kiradi. Unga ana shunday kamchiliklar yon tomonga keladigan tish orasidagi sigmatizim, tomogdan chikadigan yoki bir zarbali r tovushi, yon tomondan keladigan l xosdir. Bu guruh bolalari fonetik eshitishning deyarli bir kadar saklanishida, savodli, grammatika qonun qoidalarini egallashida alohida qiyinchiliklarni xis qilmaydilar, shu sababli bu xildagi tovush almashtirishlar, oʻzbek tili fonemalari orasida oʻxshashlikka ega emas va ular bilan aralashtirib yuborilmaydi.

2-guruh nutq tovushlarini idrok qilganda talaffuz apparatlarining muvofiklashmagan xarakati asosida yuzaga kelgan nuksonlar, monomorf yoki polimorf xarakteridagi (funktional, mexanik dislaliya, dizartriya v/b) fonetik-fonematik jihatlariga rioya qilmaydigan bolalarda iborat. Bunday oʻquvchilarda tugri oʻqish qoidalariga rioya qilinmaydi, yozuvda oʻziga xos xatolar yuzaga keladi. Agar bolalarda analizatorlarning periferik qismida (eshitishga, talaffuzga oid apparatlarda) nuksonlar bor boʻlsa, vaziyat murakkablashadi. Bunday holda ular oʻqish, yozish malakalarini oʻrganishda butun taʼlim jarayoni davomida katta qiyinchiliklarni his qiladilar.

3-guruhga tutilib, qiynalib gapiradigan oʻquvchilar kiradi. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda bunday oʻquvchilar nisbatan kam uchraydi. Agar sof tutilib gapirish boʻlib, boshqa nutqiy buzilishlar bilan hamroq boʻlmasa, oʻquvchilar oʻquv malakalarini ana shunday muvaffaqiyatli ravishda oʻrganib, bilib oladilar.

4-guruhga alalik xususiyatidagi nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalar dahldor. Ularning nutkiy rivojlanishi noanik darajada va leksik, grammatik maʼnoni ifodalashi uchun morfologik vositalarni deyarli tulik ravishda mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Nutqiy yetishmovchilikning murakkab shaklining bunchalik bulishining sababi Broka yoki Vernika doirasining nixoyat darajada shikastlanishi, bosh miya kobigining umuman xali usib yetilmaganligidir. Bu guruhdagi bolalar oʻquv materialini bajara olmaydilar va individual, oʻziga xos dastur asosida oʻqitiladilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqi.
2. Poʻlatova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.
3. Рахманова В.С. «Она тили ўқитиш махсус методикаси». - Т.: «Иқтисод-молия», 2007 й.
4. Рахманова В.С., Нуркелдиева Д.А. Нутқ ўстириш ва ва ўқишга ўргатиш (ўқув-услубий қўлланма). Т.: «Navroz», 2014
5. Петрова В. Г. «Развитие речи учащихся вспомогательной школы». Москва: «Академия», 2004 г.